

UDC: 347.9(042)(575.1)
ORCID: 0000-0003-0549-6765

ARBITRAJ HUQUQINI O'QITISH: ASOSIY MAQSADLAR

Xalilova Zebiniso Erkinovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
"Xalqaro xususiy huquq" kafedrası katta o'qituvchisi,
LLM Eur va PhD (Bremen universiteti, Germaniya),
e-mail: zkhalilova@inbox.ru

Annotatsiya. Har qanday pedagogik faoliyatda bo'lgani kabi, arbitraj huquqini o'qitish ham nimani o'qitish va uni qanday o'qitish to'g'risida to'g'ri qarorlar qabul qilishni talab qiladi. Biroq, na "nimani", na "qanday qilib" degan savollarga javob berishdan oldin "nima uchun" degan savolga javob topish kerak. O'qituvchining nimani o'qitishi va qanday usul bilan o'qitishi, avvalambor, ma'lum bir kursning nima uchun taklif qilinayotgani haqidagi qarorga asoslanishi kerak. Eng muhimi, bu arbitraj huquqini o'qitish emas, balki arbitrajni o'rganishdir. Arbitraj huquqini o'qitishga turlicha yondashish mumkin. Arbitrajga e'tibor qaratish arbitraj va sud muhokamasi, mahalliy arbitraj va xalqaro arbitraj, tijorat arbitraji va investitsiya arbitraji, qonunni tushunish va amaliyotni tushunish o'rtasidagi farqlarni anglay olish imkonini beradi. Arbitrajni o'qitish bo'yicha har qanday muhokamaga, albatta, ushbu muhokama ishtirokchisining ruhiy holati sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqola arbitraj huquqini o'qitadigan professor-o'qituvchilar uchun foydali takliflar berishga, ularni arbitraj sohasidagi o'qitiladigan birinchi o'quv yili kurslarida yanada ko'proq diqqatni arbitrajga qaratishga va ushbu sohadagi sifatli o'quv materiallarining ko'payishida o'z hissalarini qo'shishga chaqirishni maqsad qiladi.

Kalit so'zlar: arbitraj huquqi, arbitraj huquqini o'qitish, arbitrajni o'qitishning asosiy sabablari, tanqidiy fikrlash, huquqiy doktrina, arbitraj kursini o'qitishning uslublari.

ПРЕПОДАВАНИЕ АРБИТРАЖНОГО ПРАВА: ОСНОВНЫЕ ЦЕЛИ

Халилова Зебинисо Эркиновна,
LLM Eur и PhD (Бременский университет, Германия),
старший преподаватель кафедры «Международное частное право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Как и при любом обучении, преподавание арбитражного права требует решения вопроса о том, чему следует учить и как этому учить. Однако ответ на эти вопросы нельзя найти без предварительного знания того, зачем этому учить. То, что преподается, и то, как это преподается, должны быть основаны на том, почему нужен этот курс. И самое главное, важно не преподавать арбитраж, а обучать арбитражу. К преподаванию арбитражного права можно подходить по-разному. Сосредоточение внимания на арбитраже позволяет провести различие между арбитражем и судебным разбирательством, внутренним арбитражем и международным арбитражем, коммерческим арбитражем и инвестиционным арбитражем, пониманием права и пониманием арбитражной практики. Любое обсуждение при преподавании арбитража обязательно будет зависеть от мысленного положения участника данного обсуждения. Эта статья нацелена на предоставление полезных рекомендаций для тех, кто преподает арбитраж (профессоров и преподавателей), и на то, чтобы убедить некоторых преподавателей серьезно отнестись к вопросу дополнительного освещения тем арбитража, включения их в небольшом объеме в свои курсы в первый год обучения и улучшения качества учебных материалов в этой сфере.

Ключевые слова: арбитражное право, обучение арбитражному праву, основные причины преподавания арбитража, критическое мышление, правовая доктрина, методика преподавания арбитражного курса.

TEACHING ARBITRATION LAW: CORE PURPOSES

Khalilova Zebiniso Erkinovna,

Senior Lecturer of the Department of
International Private Law of Tashkent State Law University,
LLM Eur and PhD (University of Bremen, Germany)

Abstract. *As with any teaching endeavor, teaching arbitration requires decisions on what is to be taught and how to teach it. Neither the “what” nor the “how” may be determined, without first addressing the question of why. What one teaches, and how it is taught must be grounded in a decision about why the course is being offered. And most importantly, it is not teaching arbitration, but rather it is learning arbitration, that matters. Teaching arbitration may be addressed in many ways. A focus on arbitration brings distinctions between arbitration and litigation, domestic arbitration and international arbitration, commercial arbitration and investment arbitration, between understanding law and understanding practice. Any discussion of teaching arbitration will necessarily be affected by the mental state of the participant in the discussion. This article is aimed at providing useful suggestions for those who teach arbitration, and to persuade to give serious thought to additional coverage, some teachers to include a bit of arbitration in their first-year courses, and encouraging the continued growth of fine teaching materials on arbitration.*

Keywords: *arbitration law, teaching arbitration law, the main reasons for teaching arbitration, critical thinking, legal doctrine, methods of teaching arbitration course.*

Prof. Dr. Stephen J. Ware o‘zining “Teaching Arbitration Law” (arbitraj huquqini o‘qitish) deb atalgan maqolasida shunday deydi: “yaxshi arbitraj bo‘lish arbitraj huquqi sohasida mustahkam bilimlarga ega bo‘lishdan ko‘ra ko‘proq narsani talab qiladi” [1]. Yaxshi arbitraj bo‘lish, yaxshi sudya bo‘lish kabi, donolik kabi fazilatlarni talab qiladi. Bular shunday fazilatlarki, ular huquqshunoslikka ixtisoslashgan oliy ta‘lim muassasalarida o‘qitilishi mumkin bo‘lgan har qanday kursda yoki arbitraj sohasiga asoslangan kurslarda o‘qitilishi mumkin bo‘lgan fazilatlardir. Bundan tashqari, yaxshi arbitraj bo‘lish huquqshunoslik bo‘yicha OTMlarda o‘qitilmaydigan tajribalarni ham talab qiladi. Masalan, ma‘lum bir sohadagi tijorat nizolarining yaxshi arbitri bo‘lish, odatda, ushbu sohaning me‘yorlari va amaliyoti bilan tanishishni talab qiladi [2]. Shuning uchun huquqshunoslikka asoslangan OTMlarning asosiy maqsadi huquqshunos talabalarga huquqni o‘rgatish emas, balki huquqni qanday qo‘llashni o‘rgatishdan iborat bo‘lishi kerak.

Ko‘pgina olimlarning fikricha, bugungi huquqshunoslik fakultetlari talabalarini huquqshunos sifatida tayyorlash maqsadida arbitraj huquqini o‘rgatmoqda. Ko‘plab huquqshunoslar arbitraj huquqidan sudyalar sifatida ham, xalqaro huquqshunoslar sifatida ham foydalanmoqdalar. Schwartzning ta‘kidlashicha, zamonaviy

huquqshunoslik shundan dalolat beradiki, bugungi kunda arbitraj keng qamrovli nizolarni, masalan, ishga yollash bilan bog‘liq kamsitishlar bilan bog‘liq mehnat nizolarini, iste‘molchilar huquqlari bilan bog‘liq nizolarni ham qamrab olyapti [3]. Bu esa amaliyotda milliy huquqshunoslarning ushbu soha bilan tez-tez to‘qnashuviga olib kelyapti va, tabiiyki, bu ularning arbitraj huquqini o‘rganishlari zarurligini anglatadi [4]. Shunday qilib, yuridik sohaga ixtisoslashgan oliy ta‘lim muassasalarining arbitraj huquqini o‘rgatish sabablari-dan biri shundaki, turli xil huquq yo‘nalishlarida faoliyat ko‘rsatayotgan huquqshunos olimlar arbitraj huquqidan xabardor bo‘lishlari kerak. Yuridik ta‘lim talabalarga huquqshunos sifatida foydalanadigan ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam berishga qaratilgan bo‘lishi kerak [5].

Huquqshunoslik sohasida ta‘lim olayotgan talabalar birinchi navbatda milliy sudlarning qarorlarini va ularning arbitrajga nisbatan qarshiliklarini tushunishlari uchun ushbu masalaga ehtiyotkorlik bilan yondashishlari va huquqiy tahlil qilishni o‘rganishlari uchun ko‘p izlanishlari kerak. Huquqshunos amaliyotchi olimlarning fikriga ko‘ra arbitraj huquqi yuridik universitetlarda o‘tiladigan kurslar orasida sud amaliyotining eng yaxshi tirgagi hisoblanadi. Shuni ham ta‘kidlash kerakki, sud amaliyoti, o‘z navbatida, arbitraj bo‘yicha milliy va xalqaro

huquqiy aktlarga asoslanadi [6] va arbitraj huquqi talabalarda normativ-huquqiy aktlarni tahlil qilish va ular asosida dalillar keltirish bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirishdagi eng yaxshi vosita hisoblanadi [7].

Arbitraj, shunday bir huquq sohasi, u huquqshunoslarga huquqning boshqa ko'plab sohalari bo'yicha tajriba va ko'nikmalarini rivojlantirishda eng samarali huquq sohasi hisoblanadi. Masalan, huquqiy muammoni hal qilish ko'plab ADR (nizolarni hal qilishning muqobil yo'llari) bo'yicha mutaxassis olimlarida alohida qiziqish uyg'otgan va o'ziga jalb qilgan yuridik soha tajribalaridan biri hisoblanadi [8], shuning uchun ko'plab ADR va arbitraj bo'yicha sud amaliyoti, pretsedentlariga asoslangan kitoblar arbitraj bilan bog'liq "mashhur" muammolarni o'z ichiga olganligi ajablanarli emas. Masalan, *Goldberg, Sander, Rogers, Cole*larning, "*Dispute resolution: Negotiation, Mediation and other processes*" (nizolarni hal qilish: muzokaralar, vositachilik va boshqa jarayonlar) deb atlagan ilmiy tadqiqot ishida yuqoridagi masala chuqur tahlil qilinadi [9]. Talabalar ushbu muammolarning yechimini o'qish topshiriqlarining bir qismi sifatida mustaqil holda yoki birgalikdagi guruh mashqlari orqali hal qilishlari mumkin. Bundan tashqari, o'qituvchi o'quvchilarning rol o'ynash mashqlari uchun qo'shimcha gipotetik fakt andozalarini osongina yaratishi mumkin. Masalan, xalqaro tajribadan kelib chiqadigan bo'lsak, Jahon Arbitraji va Mediatsiyasi Hisoboti shuni ko'rsatadiki, AQShning huquqshunoslik fakultetlarida ta'lim berayotgan o'qituvchilar arbitraj huquqini o'qitishda faktik tekshiruv va mijozlarga maslahat berishga qaratilgan mashqlardan muntazam ravishda foydalanadilar. Ushbu mashqlardan mijoz, ish beruvchi, o'z xodimlari bilan arbitraj kelishuvlaridan foyda oladimi yoki yo'qmi degan savollarga javob topishdan iborat. Yana bir misol, kredit kartaning hisobini to'ldirish muammosi bo'yicha arbitraj bandining ijro etilishi to'g'risidagi sudda qo'llaniladigan dalillarga qaratilgan. Ba'zi ushbu sohadagi mashqlar talabalarni jamoaviy bitim yoki xalqaro tovarlarni sotishda arbitraj kelishuvi shartlarini muhokama qilishda yordamchi bo'lishlari mumkin [10].

Misollar juda ko'p, chunki arbitraj huquqi amaliyotchi yuristlarning ko'plab rollarini o'z ichiga oladi. Arbitraj huquqi huquqshunoslarning

arbitrajda faktlarni yig'uvchi, tadqiqotchi, maslahatchi, shartnoma tuzuvchi, muzokarachi, sudya va advokat kabi rollarini o'z ichiga oladi va albatta, bu mashqlarning barchasi talabalarning og'zaki muloqot ko'nikmalarini va yozma muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Hech bir professor-o'qituvchi yoki hech bir huquqiy adabiyot arbitraj huquqini o'qitish bo'yicha yagona bitta maqsadni ko'rsata olmaydi. Biroq har bir arbitrajga asoslangan kursning maqsadi qaysidir ma'noda arbitraj sohasida professional arbitrlarni yoki arbitraj taraflariga huquqiy maslahat bera oladigan huquqshunoslarni tayyorlashdan iborat. Bo'lajak arbitrlarni shunchaki o'qitishdan oldin, arbitraj huquqini "nima uchun?" o'qitish kerak degan savolga javob topish uchun ba'zi huquqshunos olimlar ushbu sohani o'qitishning beshta asosiy sababi bor degan fikrga kelgan. Har bir o'qituvchi ushbu sabablarning qaysi biri uning maqsadi va kursiga mos kelishini hal qilishi kerak. Ideal hayotda barcha beshta maqsadni bitta kurs orqali amalga oshirish mumkin, lekin ta'lim maqsadlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, ushbu maqsadlarning barchasini amalga oshirishga bo'lgan harakatlar ularning har birini mukammal ravishda amalga oshirishning imkoni yo'qligi faktini tasdiqlamoqda. Masalan, *Professor Ronald Brand* arbitraj huquqi bo'yicha o'tiladigan kurslarda nimani o'rgatish kerakligini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan beshta asosiy sababni keltirib o'tadi [11].

Arbitrajni o'qitishning asosiy maqsadlari:

1) har bir talabaga *huquqiy doktrina* haqida, ya'ni huquqni tushunish bo'yicha asosiy tushunchani berish. Bu, albatta, arbitrajni o'qitishning eng asosiy sababidir va har bir arbitraj kursi uni o'z ichiga olishi lozim;

2) har bir talabaga o'zining *tanqidiy fikrlash* qobiliyatini rivojlantirish bilan shug'ullanish imkoniyatini berish. Bu zamonaviy huquqiy ta'limda har qanday huquq kursining zaruriy tarkibiy qismi hisoblanadi, lekin agar professor-o'qituvchining asosiy yondashuvi talabalarga faqat huquqiy qoidalar va nazariy ilmlarni yetkazish bilan bog'liq konsepsiyaga qaratilgan bo'lsa, tanqidiy fikrlashni o'rgatish masalasini professor-o'qituvchi osongina o'tkazib yuborish mumkin;

3) har bir talabaga *huquqiy tadqiqot, yozish va notiqlik ko'nikmalarini* rivojlantirishi uchun

yordamchi bo'lish. Bu huquqiy qoidalarini tushunish va qo'llashdan tashqari yana bir ustunroq qadamni talab qiladi. Ushbu qadam „tajribaviy ta'lim“ deb ataladigan sohaga o'tishdagi qadam hisoblanadi;

4) har bir talabaga *bitimni rejalashtirish jarayoniga nizolarni hal qilish bilan bog'liq bo'lgan huquqning qo'llanilishini* tushunishi zarurligi to'g'risida xabardor qiladigan ko'rsatmalarni berish. Agar bu maqsad to'g'ri yo'naltirilgan bo'lsa, bu talabaga yaxshiroq arbitrajga ega bo'lishga erishish maqsadini ko'zlamasdan (garchi bu natija berishi aniq bo'lsa ham), balki natijalarni oldindan ayta oladigan, arbitrajga bo'lgan ehtiyojning oldini olish maqsadida yaxshiroq shartnomalarni tuzib olish qobiliyatni egallash imkoniyatini berdi. Nizo yuzaga kelsa, bitim taraflari arbitraj xarajatlari aniq natijani o'zgartira olmasligi faktini oqilona aniqlay oladi;

5) talaba doirasidan tashqariga chiqish va ma'lum bir davlat yoki region huquqiy tizimiga ta'sir qilish. Bu umumiy ma'noda qonun ustuvorligini oshirishda hissa qo'shish bilan bog'liq harakat hisoblanadi va arbitraj „nima uchun kerak?“ degan savolga javob berishda eng ustun maqsaddir. Ammo amaliyotda ushbu sabab ko'pchilik arbitraj kurslarining ahamiyatli qismi bo'lish ehtimoli eng kam hisoblangan element hisoblanadi.

So'nggi ikki sabab bo'yicha bitim tuzishlar: xorijiy element bilan bog'liq faoliyat va bitimlarni rejalashtirish maqsadlari uchun arbitrajni o'rgatish;

arbitraj huquqini o'qitishning yuqorida sanab o'tilgan beshta asosiy maqsadlaridan biri hisoblangan va eng ko'p samara beradigan maqsad bu „*bitimni rejalashtirish jarayoniga nizolarni hal qilish bilan bog'liq bo'lgan huquqning qo'llanilishi*“dir. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarida bitimlarni rejalashtirish kurslari nizolarni hal qilish kurslaridan ajratilgan, chunki arbitrajning doktrinal qonuni faqat nizolarni hal qilish kurslarida o'qitilishi kerak. Maqsad – huquqshunoslarni arbitraj jarayonida yaxshi arbitrlilik va yaxshi maslahatchi bo'la olishlari uchun ularni tayyorlashdir. Ammo „nima uchun arbitrajni o'qitish kerak?“ degan savolga javob berib bilishda huquqshunos olimlar ushbu sohadagi ilmlarini yanada chuqurlashtirishga intilishlari kerak. Huquqiy tizim faoliyatini

takomillashtirish uchun huquqiy ta'limdan foydalanishga intilish kerak. Bu nafaqat nizolarni hal qilishda ish yomon tarafga o'zgarib ketganda shu ish bo'yicha mas'ul bo'lgan huquqshunos (arbitr)ga tegishli bo'libgina qolmay, balki xorijiy element aralashgan huquqiy munosabatlar bilan bog'liq bitimlarni tuzgan huquqshunoslarga ham taalluqli hisoblanadi. Ya'ni, diqqatni faqatgina arbitraj jarayonini olib boradigan arbitrga emas, balki bitimlarni tuzishda yordamchi bo'ladigan huquqshunos-amaliyotchilarga ham qaratish kerak. Ko'p yillar davomida Vis Moot muammosi nizolarni hal qilishda huquqiy qoidalarini taklif qilishga imkon beradi, ushbu qoidalarini qo'llash natijalari nafaqat nizolarni hal qilishda adolatlilik va oldindan ko'ra bilish nuqtayi nazaridan, balki ular arbitraj tomonlariga shartnomani tuzish jarayonida ushbu qoidalarga qanday munosabatda bo'lishlari mumkinligiga ham ta'sir ko'rsata oladi [12]. Agar ma'lum bir huquqiy qoida shartnoma tarafiga bitimni tuzish bo'yicha nomunosib majburiyatlarni yuklasa, ushbu qoida nizolarni hal qilish jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lishidan qat'i nazar qabul qilinishi mumkin emas.

Bugungi kunda nizolarni hal qilishni yanada bashoratli, samaraliroq hal qilishda yaxshiroq xorijiy bitimlar tuzish uchun to'g'ri forumni tanlash va qonun moddalarini to'g'ri tanlashni biladigan va shu maqsadda arbitraj huquqi va amaliyotidan foydalana oladigan professional huquqshunoslar soni juda sanoqli. Amaliyotda nizolashayotgan arbitraj tomonlari shartnoma shartlarini har qanday arbitraj jarayonidan kutiladigan natijani oldindan bilish uchun yetarlicha yaxshi tushunchaga ega hisoblanadilar. Bu albatta tadbirkorlik subyektlarining bugungi iqtisodiy globalizatsiya davridagi faolliklaridan dalolat beradi.

Bitimlarni tuzuvchi huquqshunos-amaliyotchilarga arbitrajni o'rgatish, tom ma'noda, arbitrga ushbu huquq sohasini o'rgatishdan ko'ra anchamushkul hisoblanadi. Arbitraj jarayonini olib boruvchi huquqshunosga nizoni hal qilish jarayoni bitimlar tuzish bo'yicha ixtisoslashgan yurist-maslahatchiga nisbatan sodda va oson tuyulishi mumkin. Arbitr ishni qabul qilganda, faktlar allaqachon o'rnatilgan bo'ladi, qo'llaniladigan huquq aniqlangan bo'ladi va arbitrning vazifasi yoki taqdim etilgan hujjatlar asosida o'z mijozi

uchun eng yaxshi dalillarni keltirish yoki arbitri sifatida ish bo'yicha eng munosib va to'g'ri qarorni tayyorlashdan iborat. Shartnomalar bo'yicha mutaxassis-huquqshunosning vazifasi esa qo'llaniladigan huquqqa muvofiq (agar tomonlar bu haqda kelishib olsalar), nizoga olib kelishi mumkin bo'lgan faktlarni aniqlash, ushbu faktlarga nisbatan ma'lum bir qonun qo'llanilganda qanday oqibatlar yuzaga kelishini aniqlashdan iborat. Bundan tashqari, tranzaksiyalarda mutaxassis huquqshunos amaldagi moddiy va protsessual qonunlar, arbitraj muhokamasi joyi, *lex arbitri*, arbitraj muhokamasi tili, arbitrlar soni va ularni tanlash usulini o'z ichiga olgan asosiy shartnomaning bir qismi hisoblangan arbitraj bandini tuzishi bilan bog'liq harakatni ham amalga oshiradi [13]. Ya'ni, shartnomani rejalashtirishda arbitraj huquqini bilish va undan foydalanish nizolarni hal qilish jarayonida arbitrajdan foydalanishga qaraganda ancha qiyinroq bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, arbitraj kurslarining olib borilishidan asosiy maqsad, birinchi navbatda, professional va axloq normalariga rioya qiladigan yuqorida faoliyatlari tahlil qilingan ikki xil yo'nalishga ixtisoslashgan huquqshunoslarni tayyorlashdan iborat bo'lishi kerak.

Qonun ustuvorligini oshirish maqsadida arbitrajni o'rgatish

Arbitraj huquqi va amaliyotini yaxshi tushunish odil sudlovdan foydalanish imkoniyatini oshiradi va bu, o'z navbatida, qonun ustuvorligini oshiradi. Garchi ba'zi huquqiy tizimlar nizolashuvchi tomonlarga nizolarni nizodan oldin hal qilishga (shu jumladan, sudni tanlash va arbitrajni tanlashga) rozi bo'lishni taqiqlasada, bu kutilmagan salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Milliy sudlarda nizolarni hal qilish bugungi kunda ko'pchilik davlatlarda adolatni ta'minlashdagi yagona yo'l emas va har xil turdagi arbitraj jarayonlari nizolarning ayrim turlari uchun milliy sudlarga qaraganda qulayroq va mosroq mexanizm hisoblanadi. Bu, ayniqsa, bunday taqiqlovchi qoidalarining natijalari xorijiy bitimlarni rejalashtirish jarayoniga ta'siri bilan bog'liq masalalarga ham taalluqli hisoblanadi [14]. Adolatni ta'minlash nizolarni hal qilishning bir nechta shakllari orqali va turli sharoitlarda amalga oshirish mumkin, chunki nizolarni hal qilishning ma'lum bir turini rasmiy va faqat

ma'lum bir shaklga asoslangan qoidalar to'plami tarzida qo'llash adolatga to'sqinlik qiladigan va jiddiy muammolarga olib kelishi mumkin.

Arbitrajni o'rganayotgan huquqshunoslar arbitraj muhokamasi jarayonida faoliyat ko'rsatadigan huquqshunoslar sifatida ham, xorijiy bitimlarni rejalashtiruvchi, tuzuvchi huquqshunoslar sifatida ham arbitraj huquqidan to'g'ri foydalanishni bilishlari kerak. Ammo shu narsani ta'kidlash kerakki, huquqshunoslik fakultetini bitirgan va davlatning oliy boshqaruv organlarida faoliyat olib borayotgan huquqshunoslar shartnomalar tuzish va nizolarni hal qilish bilan shug'ullanayotgan arbitrlarga qaraganda ko'proq vazifalarni o'z zimmlariga oladilar. Ular arbitrajning huquqiy asoslarini takomillashtirish va muzokaralar olib borish orqali qonun loyihalarini ishlab chiqish kabi faoliyatlari natijasida qonun ustuvorligini oshirishga qaratilgan hukumat jarayoniga ahamiyatli hissa qo'shishlari mumkin.

Oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim sifatini yaxshilash va o'quv rejasini rivojlantirishda arbitraj va xalqaro tijorat huquqini o'qitishning afzalliklaridan biri shundaki, u inson huquqlariga yoki hatto oila huquqi yoki jinoyat huquqi kabi boshqa huquq sohalariga qaratilgan kurslarni o'z ichiga olmaydi. Tijorat munosabatlari va bu munosabatlardagi nizolarni hal qilishga qaratilgan kurslar har qanday huquqiy tizimning asosidir. Faol iqtisodiy tizimsiz hech bir jamiyat asosiy darajada faoliyat yurita olmaydi. Shunday qilib, bu masalalar har qanday huquqiy tizimning asosini tashkil etadi va o'z mohiyatiga ko'ra inson huquqlarining ham asosini tashkil etadi. Shu bilan birga, ular bu huquqlarni tahdidsiz usullar bilan hal qilishga imkon beradi. Xalqaro tijorat huquqi va arbitrajning diniy, madaniy va tarixiy tafovutlarini muhokama qilish ham ancha oson. Ayniqsa, o'tish davridagi mamlakatlarda arbitraj huquqini o'qitish nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish orqali davlatda qonun ustuvorligining ta'minlanganligini ko'rsatishning bir ifodasi hisoblanadi. Tijorat arbitraji xususiy munosabatlar subyektlari hisoblangan taraflar (jismoniy shaxslar) o'rtasidagi nizolarga e'tibor qaratsa, investitsiya arbitraji jarayonni suveren davlat doirasiga olib boradi. Bu esa, o'z navbatida, talabalarni qonun ustuvorligining kengroq masalalari va muammolarini tadqiq qilishga chorlaydi.

Arbitraj kursida nimani o'rgatish kerak?

“Nima?” degan savolga javob berishning oson usuli dars uchun ishlatiladigan materiallarni tanlashda. Masalan, rivojlangan davlatlar yuridik ta'lim tizimida har bir dars uchun zaruriy tayyorgarlik ko'rish uchun muhim hisoblangan va arbitraj kursi uchun tanlangan darslikka (arbitraj sohasidagi pretsedentlarga bag'ishlangan) kuchli e'tibor qaratilgan. Bu ma'lum bir o'qituvchining kursni taklif qilish sabablariga mos keladigan mavjud kitobni topa olmaslik bilan cheklovchi jarayon bo'lishi mumkin. Hozirda arbitraj huquqi bo'yicha ko'plab yaxshi kitoblar mavjud bo'lsa-da, “arbitraj nima?”, “nima uchun arbitrajni o'rganish kerak?” degan savollarga professor-o'qituvchilar tomonidan har doim ham to'liq javoblar olish qiyin. Bunga sabab ushbu sohada nashr etilgan adabiyotlarning ko'pchiligining sotuvda kamligi va qimmat narxlarda onlayn sotilayotganligidir. Ularning elektron variantlarini bir necha yil o'tgandan so'ng internetdan bepul tarzda yuklab olish mumkin. Bu esa arbitraj jarayonidagi o'zgarishlarning professor-o'qituvchilar tomonidan o'z vaqtida xabardor bo'la olmasliklariga sabab bo'ladi. Bu, ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar arbitraj tizimida faoliyat ko'rsatayotgan amaliyotchi-huquqshunoslarga va nazariya bilan mashg'ul bo'lgan OTMLarda faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarga tegishli. Universitet kutubxonalari yoki universitetning onlayn resurslarida yetarli darajada mavjud bo'lgan arbitraj sohasidagi adabiyotlar har bir professor-o'qituvchiga arbitraj bo'yicha sifatli kursni ishlab chiqishda yordamchi bo'ladi.

Arbitraj sohasidagi adabiyotlarning mavjudligi professor-o'qituvchiga arbitrajning ma'lum bir yo'nalishi bo'yicha o'z dasturini ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, ba'zi o'qituvchilar talabalarga faqat mahalliy arbitraj kursini o'qitadilar [15], boshqalari esa, birinchi navbatda, xalqaro tijorat arbitraji bo'yicha kurs tashkil etishga harakat qiladilar [16], yana bir qancha professor-o'qituvchilar talabalarni *Vis Mootga* tayyorlash maqsadida kursning o'zida arbitraj va tijorat huquqidan dars o'tadilar [17]. Ba'zilar esa talabalarga arbitrajni nizolarni muqobil hal qilishning kengroq muhokamasining bir qismi sifatida o'qitsalar, ba'zi o'qituvchilar nizolarni hal qilishda arbitraj muhokamasi va milliy

sud jarayonlari o'rtasidagi farqlarni qiyoslab bilishlari uchun talabalarga huquqiy tahlil qilish mexanizmlarini o'rgatadilar [18]. Bundan tashqari, arbitraj xorijiy shartnomalarni tuzish bo'yicha tashkil qilingan kurslarning bir qismi sifatida ham o'qitiladi [19].

Arbitraj huquqini o'rganish yuridik institut yoki universitetlarda o'tiladigan arbitraj bo'yicha har qanday kursning zaruriy maqsadi bo'lganligi sababli, ushbu huquq sohasi ifoda etiladigan predmetning zarur elementi bo'lishi kerak. Qaysi huquq doktrinasining qo'llanilishi kursning ichki arbitraj huquqi, xalqaro tijorat arbitraji, xalqaro investitsiya arbitraji yoki boshqa masalalarga qaratilganligiga bog'liq bo'ladi. Agar biz diqqatni arbitrajning xalqaroligi xarakteriga qaratadigan bo'lsak, bunda 1958-yilgi Nyu-York konvensiyasining rolini tahlil qilishga to'g'ri keladi [20]. *Lex arbitri* konsepsiyasini anglash uchun ba'zi milliy arbitraj qonunlarini o'rganib chiqish talab etiladi. Bunda, birinchi navbatda, UNCITRAL Model Law namunaviy qonuni boshlanish nuqtasi hisoblanadi [21]. Masalan, O'zbekiston misolida olib qaraydigan bo'lsak, milliy arbitraj huquqini 2006-yilda qabul qilingan “Hakamlar sudlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni [22] va 2021-yilgi “Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari [23] orqali o'rganish mumkin. Institutsional arbitraj qoidalari to'plami bunday qoidalarda yoritilgan asosiy masalalarni va ushbu qoidalar bilan tartibga solinadigan keng tarqalgan masalalarni tushunishga yordam beradi. UNCITRAL arbitraj qoidalari esa arbitraj muhokamasining umumiy qoidalarini ko'rib chiqishda hamda agar arbitraj kelishuvida nizoni hal qilish bo'yicha biron-bir arbitraj instituti tanlanmagan bo'lsa, *ad hoc* arbitrajini qo'llash imkoniyatlarini ta'minlashda eng yaxshi doktrinal huquq manbasi hisoblanadi.

Zamonaviy huquqshunoslar har qanday huquqshunoslik kursi *tanqidiy fikrlash* ko'nikmalarini qamrab olish zarur deb hisoblaydilar. Shunday qilib, faqat huquqiy doktrinani yoritishning o'zi yetarli emas. Talaba bir qator huquqiy qoidalarni yoddan bilish bilan birgalikda ushbu qoidalarga oid bir qancha savollarga javob bera olishi ham kerak. Ikki turdagi savollar huquqiy qoidalar bo'yicha har qanday tanqidiy fikrlash uchun muhim hisoblanadi:

a) muayyan muammolarga nisbatan qoidalar qanday qo'llaniladi? Talabaniing ma'lum qoidalarini bilishi va ularni qanday qo'llashi turli xil tushunchalardir. Agar talabada qoidalarining qanday qo'llanilishi to'g'risida ko'nikmalar mavjud bo'lmasa, uning ma'lum qoidalarini bilishi ahamiyatsiz hisoblanadi.

b) qonun chiqaruvchi hokimiyatlar tomonidan har bir qoidani tanlashda qanday asosiy siyosat qo'llaniladi va qo'llab-quvvatlanadi? Hech bir qoidaning uning maqsadi tushunilmagunga qadar aniq anglay olinishi imkonsiz. Quyidagi savollar kelib chiqishi mumkin: masalan, tanlangan qoida nizolarni hal qilishda adolatlilik, bashoratlilik yoki samaradorlik uchun tanlanganmi yoki tranzaksiyalar, xorijiy bitimlarni rejalashtirish jarayonini ishonchli tarzda samarali va adolatli amalga oshirish uchun tanlangan qoidami? Bu tomonlar tomonidan o'zgartirilishi mumkin bo'lgan odatiy qoidami yoki o'rganilayotgan huquqiy intizomga mos keladigan va tuzatilishi mumkin bo'lmagan majburiy qoidami? Yuqoridagi savollar tanqidiy fikrlashga yordam beradigan muhim yordamchi savollardir.

Talabalarga tadqiqot ko'nikmalarini ham rivojlantirish zarur. Arbitraj kurslarini o'qitish jarayonida talabada ushbu huquq sohasi har qanday huquq sohasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan huquqiy qoidalarining barchasini qamray olishi tushunchasini shakllantirish noto'g'ri. Huquqshunoslik sohasida ta'lim olayotgan talabalar faqatgina "qonunni bilish"i emas, balki "qonunni qanday topishni bilish"i kerak. Xalqaro arbitrajda, vaqt o'tishi bilan sud amaliyoti ahamiyati ortib borayotganligi va yagona huquqiy tizimga tayanish ko'pincha imkonsiz ekanligi fikrimizning yaqqol dalilidir. Shunday qilib, talabada har qanday xalqaro arbitraj kursini huquqiy tadqiqot ko'nikmalari va usullarini rivojlantirmasdan o'qitish mantiqsiz, chunki talaba ushbu ko'nikmalarsiz o'qitilgan huquq qoidalarini va qonunlarni to'raligicha anglay olmasligi va ular

haqida to'liq tushunchaga ega bo'lmasligi mumkin.

Shuningdek, notiqlik tajribalariga, yozma va og'zaki ko'nikmalarga ega bo'lish – har qanday yuridik amaliyotda muhim rol o'ynaydi. Garchi huquqshunos qonunni mukammal bilsa-da, ma'lum bir qonun yoki qoidalar haqidagi tushunchalarini o'z mijozlariga, qarshi tomon advokatlariga, hakamlarga, arbitrlarga va sudyalarga yetkaza olmasa, bu bilim juda cheklangan qiymatga ega bo'ladi. Shunday qilib, muloqot qobiliyatlari elementi mavjud bo'lmagan arbitraj kurslari amaliy jihatdan oqsoq kurslar sifatida tan olinadi. Asosiy arbitraj bandini ishlab chiqish va tayyorlash esa yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda va asosiy doktrinal masalalar va amaliyot muammolarini tushunishda foydalidir. Muloqotning ma'lum bir turining o'qituvchi tomonidan o'rgatilmaligi, o'qituvchi uchun talabani baholashda qiyinchiliklar tug'diradi. Ya'ni, talabaniing arbitraj kursida o'rganilgan asosiy doktrinal materialni qay darajada o'zlashtirganligini yuqoridagi ko'nikmalarni unda rivojlantirmasdan turib baholash noto'g'ri hisoblanadi. Talabaniing ma'lum qoidalarini va tanqidiy fikrlashni anglay olishi uchun yozma va og'zaki muloqot mashqlaridan foydalinishi muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, arbitraj huquqini "nima uchun?" va "qanday qilib?" o'qitish kerak degan savollarga har bir professor-o'qituvchi o'z tajribasi va ushbu sohada nazariy yoki amaliy ilmlariga asoslangan holda javob bera oladi. Arbitraj sohasida ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan huquqshunos olimlarning fikrlarini to'raligicha qabul qilish yoki ularni rad etish shu sohada faoliyat olib borayotgan huquqshunos-amaliyotchilar, professor-o'qituvchilarning mustaqil tanlovlaridir. Ilmning qaysi sohasi bo'lishidan qat'i nazar, o'z sohasida mukamallikka intilayotgan har bir professor-o'qituvchi talabalariga ta'lim berganida ularga o'z ilmlarini yuqori umidlar bilan o'rgatishi kerak deb hisoblayman.

REFERENCES

1. Stephen J. Ware, Teaching Arbitration Law, 14. American Review of International Arbitration, 2003, pp. 231–241.
2. Rau S., Peppet Sh. Notes for teachers, Process of dispute resolution: The role of Lawyers. 3d ed. 2002.

3. Schwartz. Enforcing Small Print to Protect Big Business: Employee and Consumer Rights Claims in an Age of Compelled Arbitration, 1997, WIS. L. REV. 33, pp. 53-54.
4. Reuben R.C. Constitutional Gravity: A Unitary Theory of Alternative Dispute Resolution and Public Civil Justice, 47 UCLA L. REV., 2000, pp. 949, 1031.
5. Bernstein L. Merchant Law in a Merchant Court: Rethinking the Code's Search for Immanent Business Norms, 144 U. PA. L. REV., 1996, pp. 1765, 1774-1781.
6. Khalilova Z.E., Practice of Commercial Arbitration and Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards Concerning Disputes in Uzbekistan: A Comparison with Germany. Dissertation, 2020. DOI: <https://doi.org/10.26092/elib/333/>.
7. Drahozal C.R., Commercial Arbitration: Cases and problems, 2002, vol. 4.
8. Haley N. Lawyers, Non-Lawyers and Mediation: Rethinking the Professional Monopoly From a Problem-Solving Perspective, 7 HARV. NEGOT. L. REV., 2002, no. 48, pp. 235, 299.
9. Goldberg S., Rogers C. Dispute resolution: Negotiation, Mediation and other processes, 4th ed., 2003, p. 244.
10. 12 WORLD ARB. & MED. REP. 224 (Aug.2001)., Teaching Arbitration in U.S. Law Schools.
11. Brand., Teaching arbitration., Legal Studies Research Paper Series Working Paper, 2017, no. 12.
12. Bergsten., Experiential Education Through the Vis Moot, 34 Journal of Law & Commerce 1, (2015) 3.
13. Thomas N. Pieper, Drafting Arbitration Clauses, ABA-NYSBA International Practice Boot Camp, New York, 2014. Available at: http://www.americanbar.org/content/dam/aba/events/international_law/2014/04/aba-nysba-international-boot-camp/CrossBorder11.authcheckdam.pdf/.
14. Brand., Party Autonomy and Access to Justice in the UNCITRAL Online Dispute Resolution Project, 10 Loyola University Chicago International Law Review, 2012, no. 11.
15. Nicholas R. Weiskopf., Commercial Arbitration: Theory and Practice. Vandepas Publishing, 3d ed., 2014.
16. Born G.B. International Arbitration: Cases and Materials. Wolters Kluwer, 2nd ed., 2015.
17. Graves M. International Sales Law and Arbitration. Wolters Kluwer, 2008.
18. Lookofsky H. Transnational Litigation and Commercial Arbitration, Juris, 4th ed., 2017.
19. Brand, Fundamentals of International Business Transactions, vol. 6, Kluwer, 2000.
20. United Nations Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards, New York, June 10, 1958 (New York Convention). Available at: http://www.uncitral.org/uncitral/en/uncitral_texts/arbitration/NYConvention.html/.
21. UNCITRAL Model Law on International Commercial Arbitration (1985), with amendments as adopted in 2006. Available at: http://www.uncitral.org/uncitral/en/uncitral_texts/arbitration/1985Model_arbitration.html/.
22. "Hakamlilik sudlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni [Law of the Republic of Uzbekistan "On Arbitration Courts"]. 2006. Available at: <https://lex.uz/docs/-1072079/>.
23. "Xalqaro tijorat arbitraji tog'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni [Law of the Republic of Uzbekistan "On International Commercial Arbitration"]. 2021. Available at: <https://www.lex.uz/docs/-5294106/>.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON / 2021

I QISM

BOSH MUHARRIR:

Nodirbek Salayev

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

E-mail: tn.tdyu@mail.ru

Jurnal 15.12.2021-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 25,92 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma: № 70.

TDYU tipografiyasida chop etildi.